

2 – AMALIY ISHI



MAVZU: POWER POINT DASTURI YORDAMIDA DARSLARGA KO'RGAZMALI QUROLLAR TAYYORLASH



Ishning maqsadi:

Talabalarga taqdimot muxarrirlari. PowerPoint dasturi va Offis dasturlarini bir biri bilan bog'lanishini hosil qilish bo'yicha nazariy ma'lumotlarni berish va nazariy ma'lumotlar asosida amaliy ishlash malakalarini hosil qilish.


Qisqacha nazariy ma'lumotlar:

PowerPoint dasturida Video fayllarni joylash va tahrirlash

Video fayllar yaratilayotgan taqdimotni yanada jonli va ishonarli chiqishiga katta hissa qo'shadi. MS Power Point 2010da slaydlarga video fayllarni Vstavka vkladkasi yordamida joylashtiriladi.

Yodingizda bo'lsin, agar video faylni hotirani tejash maqsadida, internetdagi biror saytga murojaat orqali slaydingizga joylashtirgan bo'lsangiz, u holda taqdimotni namoyish etayotganingizda kompyuteringiz internetga ulangan bo'lishingiz kerak, aks holda video fayl topilmagani xaqida xabar chiqariladi.

Taqdimotingizga joylashtirayotgan video faylingiz hajmi sizga keragidan katta bo'lsa, uni Rabota s video nomli panelning Vosproizvedeniye(ijro etish) qismida joylashgan Montaj video buyrug'idan foydalangan holda tahrirlash mumkin. Bu panel MS Power Point 2010 tasmasida slaydingizdagi video tasvirini tanlaganingizda paydo bo'ladi.




MS Power Point 2010da video faylni taхrirlaш

Video namoyishi uchun oyna shaklini **Работа с видео** nomli panelning **Формат** qismida joylashgan **Форма видео** ichidan biror geometrik shaklni tanlash orqali, oynani biror tarafga burish uchun esa **Видеоэффекти** dagi biror elementdan foydalanishingiz mumkin.

Endi slaydga video o'rnatish va uni birma-bir tahrirlash ketma-ketligini bajarilishini ko'rsatib o'tamiz.

1. **Видеони** o'rnatiladigan slaydga o'ting.
2. **Вставка** vkladkasidagi **Мультимедиа** panelidan **Видеони** tanlang.
3. Ochilgan **Вставка** videozapisi muloqot oynasidan video faylni tanlang va **Вставитни** bosning. **Ролик** slaydga joylashdi.
4. **Работа с видео** nomli panelning **Формат** bo'limidagi **Воспроизведение** qismida joylashgan **Монтаж видеони** tanlang. Quyida ko'rsatilgani kabi videoning boshlanish (yashil) va tugatish (qizil) markerlarini surish orqali uning kerakli qismini qirqib oling.




1. **Воспроизведение** tugmasini bosib ijro ettirib ko'ring. Agar zarurat tug'lsa, shu ishni boshqatdan bajaring.
2. **OK** tugmasini bosib sozlamalarni saqlab qo'ying.
3. **Воспроизведении**даги **Параметри видео** panelidan foydalanib, rolikni boshlanishi va tugashi uchun parametrlarni sozlashingiz mumkin.

Audio fayllar bilan ishlash


MS Power Point 2010da slaydlarga audio, ya'ni tovush(zvuk) fayllarni xam video fayllar kabi **Вставка** vkladkasidagi **Мультимедиа** panelidan **Звук** (Tovush) yordamida joylashtiriladi.

Agar tovush faylining hajmi juda katta bo'lsa, uni xuddi video fayldagi kabi tahrirlash mumkin, ya'ni kerak qismini qirqib olish mumkin



MS Power Point 2010da tovush faylni tahrirlash


Shuningdek, tovush faylini o'rnatilgan slaydidan boshlab taqdimot tugagunicha fon tovushi shaklida ijro etiladigan qilib sozlab qo'yish mumkin. Aslida bu kabi fayllar navbatdagi slaydga o'tgach ijro etishdan to'xtaydi.



MS Power Point 2010da tovush faylni sozlash

Endi slaydga tovush o'rnatish va uni birma-bir tahrirlash ketma-ketligini bajarilishini ko'rsatib o'tamiz.


1. Tovushni o'rnatiladigan slaydga o'ting.
2. **Вставка** vkladkasidagi **Мультимедиа** panelidan **Звук**ni tanlang.
3. Ochilgan Vstavka zvuka muloqot oynasidan video tovush faylini tanlang va Vstavitni bosing.
4. Rabota s zvuk nomli panelning Format bo'limidagi Vosproizvedeniye qismida joylashgan Montaj zvukani tanlang. Quyida ko'rsatilgani kabi tovushning boshlanish (yashil) va tugatish (qizil) markerlarini surish orqali uning kerakli qismini qirqib oling.



1. **Воспроизведение** tugmasini bosib ijro ettirib ko'ring. Agar zarurat tug'lsa, shu ishni boshqatdan bajaring.
2. **OK** tugmasini bosib sozlamalarni saqlab qo'ying.
3. **Воспроизведениедagi Параметры звука** panelidan foydalanib, tovushni boshlanishi va tugashi.

Taqdimotni video shaklida saqlash

MS Power Point 2010ning yana bir yangi funksiyasi taqdimotni video fayl shaklida saqlashdir. Buning uchun MS Power Point 2010 tasmasidagi Fayl vkladkasiga o'tish va u yerda chap tarafdagi ustunda joylashgan Soxranit i otravit buyrug'ini tanlash kerak. So'ngra chapdan ikkinchi ustunda joylashgan Sozdat video tugmasini tanlagach, ochilgan uchinchi ustundan bo'lajak video faylni parametrlarini tanlab chiqiladi va shu ustunning oxirgi qatorida joylashgan Sozdat video buyrug'i tanlanadi.



MS Power Point 2010da taqdimotni video faylga aylantirish.

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari.

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma – ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

Topshiriqlar variantlari (masala, misol, keyslar).

1. Microsoft korporatsiyasining ilova paketlarini sanab o'ting.
2. Power Point ilova paketini ishga tushuring.
3. Power Point ilova paketining ishchi stoli bilan tanishtiring.
4. Power Point ilova paketining menyular qatori bilan tanishtiring.

5. Power Point ilova paketida prezentatsiya tayyorlang va faylni saqlang.
6. Power Point ilova paketida oldin tayyorlangan faylni oching.
7. Power Point ilova paketida tayyorlagan taqdimotingizni PDF shaklida saqlang.
8. Power Point ilova paketida tayyorlagan taqdimotingizni video shaklida saqlang.

Nazorat savollari.

1. Power Point qanday dasturlar sirasiga kiradi?
2. Power Point qaysi yirik korporatsiyaning ilova paketi sanaladi?
3. Power Point ilova paketida Вставка menyusida qanday ishlarni amalga oshirsa bo‘ladi?
4. Power Point ilova paketida Дизайн menyusida qanday ishlarni amalga oshirsa bo‘ladi?
5. Power Point ilova paketida Переходы menyusida qanday ishlarni amalga oshirsa bo‘ladi?
6. Power Point ilova paketida Анимация menyusida qanday ishlarni amalga oshirsa bo‘ladi?